



O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MODAL SO‘ZLARNING SEMANTIK TAHLILI. F.M. DOSTOEVSKIYNING “JINOYAT VA JAZO” (CRIME AND PUNISHMENT) ROMANI ASOSIDA.

To‘xtasinova Yoqutxon Baxromjon qizi
QDU tayanch doktoranti
toxtasinovayoquthon@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi modal so‘zlar semantik jihatdan “Jinoyat va Jazo” romanidan keltirilgan misollar asosida tahlil qilindi

Kalit so‘zlar: modallik semasi, subektiv modallik, kirish kengaytiruvchilari, modallik kategoriyasi

Abstract: in this article, modal words in Uzbek and English were semantically analyzed based on examples from the novel “Crime and Punishment”

Keywords: schema of modality, subjective modality, access extenders, category of modality

Kirish

Fikrning voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalash uchun xoslangan so‘zlar guruhiga “modal so‘zlar” deb yuritiladi. Modallik gapning asosiy birligi, gap semantikasining eng muhim komponentidir. Modal so‘z (ingliz tilida) “modal word”, o‘ziga xos leksik ma’nosini yo‘qotgan va modallikni tasvirlash vositasi vazifasini bajaradigan so‘z sifatida qayd qilinadi. Ular modallik tushunchasi bilan bog‘lanadi. Modallik – og‘zaki nutqning ajralmas funksional alomatlaridan biri. Ma’lumotlarda keltirilishicha, “modallik” tushunchasini fanga birinchilardan bo‘lib Aristotel olib kirgan. Ushbu maqolada F.M.Dostoevskiyning “Jinoyat va Jazo” asarida uchraydigan turli kategoriyadagi modal so‘zlarga misollar keltiriladi va qiyosiy tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslikda modallik deganda, odatda gap mazmunining obektiv borliqqa munosabati va so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati tushuniladi[2]. Modallik ma’nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barangdir. Tilshunoslikda bu vositalarni aniqlashning yagona metodikasi bo‘lmaganligi tufayli modallik ifodalovchi vositalar turli tillar materiallari asosida turlicha ajratilmoqda. Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo‘shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so‘z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so‘roq olmoshlari, undalmalar, kirish so‘z va gaplar[3]. mansubdir. Anglashiladiki,

bu kategoriya ostida xilma-xil vositalar: morfologik, leksik, sintaktik vositalar kiritiladi. Tilshunoslikda ushbu xilma-xillikni bir kategoriya ostiga birlashtirilishi turli ziddiyatlarga sabab bo‘ladi va bir ¹⁷¹umumiy belgi topishga harakat qilinadi. Bu vositalarning hammasi o‘z funksiyasini gap ichida ya’ni gap sathida ko‘rsatadi va mana shu sintaktik belgisi yuqoridagi vositalarni birlashtirishga ma’lum darajada asos bo‘ldi[1] Avvalambor, gapda turli ma’no beruvchi modal semalari haqida malumot bersak. Mazmun jihatdan birlashtiruvchi sema hisoblanuvchi modallik semasi boshqa barcha semalarda takrorlanish xususiyatiga ega bo‘lishi bilan birga, bir qancha xususiy semalar orqali namoyon bo‘ladi: 1. Ishonch semasi: “kampirni, turgan gap, garovga narsa qo‘ygan odam o‘ldirgan!-derdi tasdiqlab Zosimov.- Albatta, garovga qo‘ygan odam! 2. Tasdiq semasi: To‘g‘ri, buning bari to‘g‘ri. [168.] 3. Gumon semasi: darvoqea, eshigi ochiq, shu yaqin atrofda bo‘lsa, ehtimol.[112.] 4. Quvonch semasi: Xudoga shukur, tush ekan!-dedi u daraxt tagiga o‘tirarkan chuqur nafas olib. 5. Afsuslanish semasi: mehmonlarning oldida amakim bor: juda topilmas, bebaho odam; sen u bilan hozir, afsus, tanishib olmading-da.[292] 6. Taajublanish semasi: hammadan qizig‘i, talabani hayron qilgan va kulgusini qistatgan joyi ko‘proq shu edi, Lizaveta qachon qaramang, homilador bo‘lib qolaverar ekan. –Qanaqasiga, o‘zing juda bedavo dedingku?- so‘radi zobit.[100.] 7. Dalillash semasi: Mundoq qaraganda, ularni avvalo adashtirgan narsa nima o‘zi, masalan, eshik yopiq ekan, qorovul bilan kelib qarashdiki, eshik ochiq; ana shundan keyin Kox bilan Pestryakov o‘ldirishgan deb topishgan![207.] 8. Tartib semasi: gap tamom, vassalom! Toza jinnilik qildik; ishga o‘taylik: bu mening do‘stim Rodion Romanovich Raskolnikov, birinchidan, sening ovozingni eshitgan, tanishmoqchi bo‘lib yurardi, ikkinchidan, senga tegishli jindakkina ishi bor.[380] 9. Fikrning kimga taalluqli ekanligi semasi: aytarli tuzukroq gap ham emas. Bilishimcha, to‘y bo‘lay-bo‘lay deb qolgan ekan, faqat qizning to‘sindan vafot etib qolishi bilan to‘xtagan. [330.] 10. Rozilik, tasdiqlashni bildiruvchi modal so‘zlar: xo‘p, ha, mayli, bo‘pti, ma’qul, mumkin. 11. Inkorni bildiruvchi modal so‘zlar: yo‘q, mutlaqo, aslo. 12. Zaruriyatni bildiruvchi modal so‘zlar: kerak, zarur, lozim, shart[5]. Professor N. Mahmudov modal so‘zlarni 9 ta turi borligini ta’kidlaydilar. Modal so‘zlarni nutqiy vaziyatdan kelib chiqib anglashilishini hisobga olsak, I.Kaxarova modal so‘zlarning ma’no turlariga rozilik, inkor va zaruriyat ma’nolarini bildiruvchi turlari ham borligini taklif qiladi.

Boshqa so‘z guruhlari kabi, modal so‘zlar ham o‘zlarining morfologik, sintaktik va semantik belgilariga ega. Modal so‘zlarning o‘zgarmasligi uning morfologik belgisiga kiradi. Gapning biror bo‘lagiga yoki butun gapga taalluqli bo‘lib, kirish so‘z vazifasida kelishi esa uning sintaktik belgisidir. Modal so‘zlarning aniqlik yoki taxmin kabi modal ma’nolari anglatishi, mustaqil so‘zlarga nisbatan kamroq nominativlikka, yordamchi so‘zlarga qaraganda ko‘proq mustaqillikka ega bo‘lishi uning semantik belgisidir.

Modal so‘zlar asosan quyidagi sintaktik vazifani bajaradi:

1. Dialoglarda avval aytilgan fikrga munosabatni ifodalab, so‘z-gap vazifasida keladi. Masalan: E, ha albatta!-dedi u ovozi bo‘g‘ilib, uning yuzidagi ifoda ham, ovozinig ohangi ham birdan o‘zgardi. [485]

2. Kirish so‘z vazifasida keladi. Masalan: Aftidan, u yana allanimalarnidir demoqchi bo‘ldi-yu, lekin sira tili chopmay turardi.[546]

3. Kirish so‘z vazifasida kelgan modal so‘zlar ba‘zan ohang bilan, yozuvda esa alohida belgilar - vergul bilan ajratiladi. Masalan: uch kun bo‘ldi shekilli, sen haqingda singlimga gapirdim, Razumixin.[682]

Modal so‘z bilan kirish so‘z o‘zaro teng emas. Chunki modal so‘z morfologiyani, kirish so‘z esa sintaksisning tekshirish ob‘yektidir. Kirish so‘z vazifasida turli so‘z turkumlari, shu jumladan, modal so‘zlar ham kela oladi. Shuningdek, kirish so‘z vazifasida qo‘llanadigan so‘zlar qaysi so‘z turkumidan bo‘lsa, o‘sha so‘z turkumiga xos ma‘no va grammatik belgilarni saqlaydi. Demak, modal so‘z kirish so‘z vazifasida kela oladi, lekin har qanday kirish so‘z modal so‘z bo‘lavermaydi. Faqat kirish so‘z sifatida qo‘llanib, o‘zi tegishli so‘z turkumi bilan bog‘lanishini, munosabatini yo‘qotgan ayrim so‘zlarga modal so‘z hisoblanadi [7].

NATIJALAR

Modal so‘zlarning gapdagi vazifasi haqida ma‘lumot keltirilganda, albatta, morfologik yondashuvni ham tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Gapda kirish so‘z vazifasida keluvchi modal so‘zlar, morfologik jihatidan quyidagi shakllar orqali hosil bo‘ladi[1]: (misollarning barchasi “Jinoyat va Jazo” romanidan keltirildi) 1.modal so‘zlar: mayli, men ablax bo‘lay, lekin sen bunday qilmasliging kerak...[301]

2.otlar: haqiqatdan ham, Raskolnikov, ayniqsa, kechagiga qaraganda ancha tetik ko‘rinar,...[338]

3.sifat:Yaxshisi, oyijon, uning oldiga o‘zimiz boraylik, shunda nima qilish kerakligi darrov ma‘lum bo‘ladi, gapimga ishoning. [335]

4.ravish: to‘g‘ri, to‘g‘ri, yaxshi bo‘lmabdi-deb go‘ldirab qo‘ydi Raskolnikov[344]

5.son: men bunga bir narsa deyolmayman, birinchidan, agar siz Petr Petrovichning bu talabini jo‘yali deb bilsangiz, o‘zingiz hal qiling,...[359]

6.fe‘l: men, bilasizmi, juda talmovsirab qoldim.[338]

7.olmosh: menimcha, asabingiz buzilishi universitetdan ketishingiz bilan ham birmuncha bog‘langan.[340]

Sayfullayev R. va boshqa mualliflarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ma‘lumot beradilarki, modal so‘zlar gapning kesimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, turli ma‘nolarni ifodalagan har qanday hukm, fikrda ustuvor qiymati bilan ajralib turadi. Shu boisdan gap tarkibidagi gap bo‘laklari bilan Grammatik aloqaga kirishmagan, so‘z birikmasi hosil qilmagan bo‘lsada, gapdagi mazkur ma‘noga bevosita daxldor bo‘lgan subyektiv modallik ma‘nosini ifodalaydigan atov birliklari ko‘plab uchraydi deya tarif berishgan. Bunday qurilmalar gap tarkibiga kirar ekan, gap tarkibidagi modal va tasdiq-inkor ma‘nosini muayyanlashtiradi, ya‘ni gapning kesimi bilan ma‘no jihatdan uzviy bog‘lanadi. Shu boisdan ular modal yoki kirish kengaytiruvchi deb ataladi.

Sababi, kirish kengaytiruvchilari to‘g‘ridan to‘g‘ri gapning mazmuniga ta‘sir ko‘rsatadi va gapning mazmuni to‘ldiradi, zich ma‘no beradi. Bu bo‘lakning vazifasidan kelib chiqib, kirish kengaytiruvchi so‘z va gap kengaytiruvchisi orasida “oraliq uchinchi” bo‘lganligi bois ularni *gapning konstruktiv bo‘lmagan bo‘lagi* atamasi bilan nomlaydi [8].

Kirish kengaytiruvchilarini quyidagi tarkiblariga ko‘ra kirish so‘z, kirish birikma va kirish gap shakllariga bo‘lib o‘rganiladi:

1) Kirish so‘z: Darvoqea, uning oqarib ketgan qonsiz va to‘mtaygan chehrasi oyisi bilan singlisi kirib kelishgan chog‘da bir zumga yorishib ochilib ketganday bo‘ldi.[339]

2) Kirish birikma: men bo‘lsam, xatto unga bugun hayron bo‘lib qoldim-dedi Zosimov odamlarning kelganiga suyunib...[340]

3) Kirish gap: aytganingizcha bo‘lsa bordir,- sovuqqina qilib javob berdi Raskolnikov.[340]. Garchi kirish kengaytiruvchilari ayrim shakllari bilan gap harakterida bo‘lsada, lekin ularning asosiy vazifasi axborotga qo‘shimcha ma‘no berish (axborotni ifodalash, yetkazish emas) fikrni dalillash, ishontrish kabi so‘zlovchining munosabatini bildirib turadi. Yuqoridagi misolda, *aytganingizcha bo‘lsa bordir*, shaklan gapga o‘xshasada, unda denotativ ma‘no mavjud emas. Kirish gaplardagi so‘zlarda harakat, bajaruvchi shaxs va obekt mavjud bo‘lmaydi, bir butunlik holicha so‘zlovchining “*gumon – tasdiq*” modal ma‘nosi mavjud.

MUHOKAMA.

Modal so‘zlarning semantik tahlili. “Jinoyat va Jazo” romanida ham bir nechta modal so‘zlar bitta gapda qo‘llanilishiga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Modal so‘zlar roman qahramonlarning ichki kechinmalarini, fikirlarini va hissiyotlarni ifodalashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan, Raskolnikovning o‘z jinoyatiga nisbatan ikkilanishlari, uning azoblanishlari va boshqa insonlarga bo‘lgan munosabati modal so‘zlar yordamida beriladi. Shuningdek, romandagi boshqa qahramonlarning ham o‘zaro munosabatlari, ularning bir-biriga bo‘lgan ishonchi yoki ishonchsizligi modal so‘zlar orqali ifodalanadi.

“Og‘ir va badmin bir o‘y uni qiynay boshladi-men butunlay telbalik qilyapman, men fikr mulohaza qilolmay qoldim, shu topda o‘zimni ham himoya qilaolmayman, deb o‘ylardi u, balki hozir qilib turgan ishining sira keragi yo‘qdir, balki hozir butunlay boshqa ish qilishi kerakdir... Yo Rabbim, qochish kerak, qochish.”[5.126]

“Dark agonising ideas rose in his mind—the idea that he was mad and that at that moment he was incapable of reasoning, of protecting himself, that he ought perhaps to be doing something utterly different from what he was now doing. ‘Good God!’ he muttered ‘I must fly, fly,’ and he rushed into the entry. But here a shock of terror awaited him such as he had never known before.”[2.122]

“Jinoyat va Jazo” romanida Raskolnikov tomonidan aytilgan ushbu parchadagi modal so‘zlarning semantik tahlili orqali, qahramonning ichki kurashini, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizligini va qilgan ishi to‘g‘riligiga shubhalanishini aks ettiradi. “*balki hozir qilib turgan ishining sira keragi yo‘qdir*” ushbu gap Raskolnikovning qilgan ishi ya‘ni jinoyatining to‘g‘riligiga shubha qilishini bildiradi, “balki” modal so‘zi uning gumonini, ishonchsizligini

ifodalaydi, “sira” so‘zi esa, uning shubhasining kuchliligini, xatto, ishining mutlaqo keraksiz ekanligini taxmin qilishini ko‘rsatadi. “*balki, hozir butunlay boshqa ish qilishi kerakdir*” bu gap orqali Raskolnikovning o‘ziga nisbatan talabchan ekanligini, o‘zini-o‘zi baholash qobiliyatiga egaligini ifodalaydi. “balki” modal so‘zi uning yana bir bor gumonini, boshqa yo‘l bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishini ifodalaydi. Ushbu parchadagi modal so‘zlar yordamida asar qahramonining ruhiy holatini, uning ichki kurashini, shubha va qo‘rquvini mahorat bilan tasvirlaydi. Ingliz tili variantida ham modal fe‘llar chuqur semantik ma’no anglatib kelmoqda. “ought perhaps to be doing something utterly different”(balki butunlay boshqa ish qilishi kerak edi): Bu yerda “ought” modal fe‘li bajarilishi lozim bo‘lgan, ammo unchalik qat’iy bo‘lmagan majburiyatni ifodalaydi. O‘zbek tilida bu “kerak edi”, “lozim edi” kabi so‘zlar bilan berilishi mumkin. “Perhaps” (balki) so‘zi esa ehtimollik, taxmini kuchaytiradi va majburiyatning bajarilishi shart emasligini, balki mumkinligini bildiradi. Shuning uchun “balki” so‘zi bilan birga kelganda, gapdagi majburiyat yanada yumshaydi. Demak, “ought perhaps to be doing something utterly different” o‘zbek tilida “balki butunlay boshqa ish qilishi kerak edi” yoki “ehtimol boshqa bir ishga kirishishi lozim edi” kabi tarjima qilinadi.

“I must fly, fly” (men qochishim kerak, qochishim kerak): Bu yerda “must” modal fe‘li kuchli, qat’iy majburiyatni ifodalaydi. Bu holatda qahramonning ichki kechinmalari, qo‘rquvi va vaziyatdan qochish zarurligi kuchli tarzda ifodalangan. O‘zbek tilida bu “kerak”, “shart”, “muqarrar” kabi so‘zlar bilan beriladi. “I must fly, fly” o‘zbek tilida “Men qochishim shart!”, “Men qochishim kerak!”, “Men qochishim muqarrar!” kabi tarjima qilinadi. “Fly, fly” (qochish, qochish) so‘zining takrorlanishi esa majburiyatning kuchliligini, qochishga bo‘lgan ehtiyojning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, parchadagi modal fe‘llar qahramonning ruhiy holatini, ichki kurashini, qo‘rquvini va qochishga bo‘lgan kuchli istagini ifodalash uchun ishlatilgan. O‘zbek tilida bu ma’nolar “kerak edi”, “balki”, “shart”, “muqarrar” kabi modal so‘zlar va fe‘llar orqali beriladi. Shuningdek, takrorlash usuli ham majburiyatning kuchliligini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

“Bu parcha-purcha latta hech kimda hech qanday shubha uyg‘otmaydi; ishqilib shunday bo‘lsin, ishqilib shunday bo‘lsin!”-takrorlardi xona o‘rtasida turgancha, u hammayoqni yana juda qattiq, diqqat qo‘yib tekshira boshladi, hech narsani unutmaddimkin, deb pollarni, bari-barini ko‘zdan kechirdi. [5.138]

‘Pieces of torn linen couldn’t rouse suspicion, whatever happened; I think not, I think not, any way!’ he repeated, standing in the middle of the room, and with painful concentration he fell to gazing about him again, at the floor and everywhere, trying to make sure he had not forgotten anything.[2.135]

Mazkur parcha romanning bosh qahramoni Rodion Raskolnikovning murakkab ichki kechinmalarini aks ettiradi. Raskolnikov jinoyat sodir etgan va uning og‘ir oqibatlarini boshidan kechirayotgan paytda, uning ruhiy holati nihoyatda og‘ir va shubhalarga to‘la edi.”*Bu parcha-purcha latta hech kimda hech qanday shubha uyg‘otmaydi*” degan gap uning jinoyatini yashirishga urinishini, dalillarning yetarli emasligiga ishoradir. “*Ishqilib shunday bo‘lsin,*

ishqilib shunday bo'lsin!” degan takror esa uning ichki qo‘rquvini, gumonlarini va umidini ifodalaydi.

Ushbu parchada “ishqilib” so‘zi modal ma‘noni ifodalaydi. “Ishqilib” so‘zi esa umid, istak, ehtiyotkorlik, shubha kabi ma‘nolarni ifodalab kelmoqda. Bu yerda “ishqilib” so‘zi Raskolnikovning ichki holatini, uning umidini, qo‘rquvini va shubhasini birgalikda ifodalaydi. U bir tomondan, jinoyati fosh bo‘lmasligiga umid qiladi, ikkinchi tomondan, uning ko‘ngli g‘ash va shubhalarga to‘la. Ushbu parcha orqali muallif qahramonning murakkab ichki dunyosini, uning ruhiy iztiroblarini mahorat bilan tasvirlaydi. Couldn’t: Bu yerda “could not” ning qisqartmasi bo‘lib, ehtimollikning past darajasini, ya’ni shubha yoki ishonchsizlikni ifodalaydi. “Yirtiq mato parchasi hech qanday shubha uyg‘otmasligi kerak edi” ma‘nosida keladi. Bu modal fe‘l qahramonning ichki kurashini, o‘z ishiga shubha bilan qarashini ko‘rsatadi. “I think not” -bu ibora ham ehtimollikning past darajasini, inkorni kuchaytiradi. “Men shunday deb o‘ylamayman” ma‘nosida keladi va qahramonning o‘z fikriga to‘liq ishonchi yo‘qligini, ikkilanishini bildiradi. Bu yerda takrorlash orqali ichki keskinlik va ishonchsizlik yanada kuchayadi. Tahlillarimizdan anglashilib turibiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi modal so‘zlarning vazifasi bir xil bo‘lib: ikkala tilda ham modal so‘zlar asosiy fe‘lga qo‘shimcha ma‘no beryapti, gapning mazmuniga so‘zlovchining munosabatini bildiriyapti. Lekin har doim ham ingliz va o‘zbek tilidagi modal so‘zlarni ekvivalent sifatida foydalana olmaymiz, V.V. Vinogradov fikricha, matndagi modallik bilan nafaqat sinxron, balki diaxron daraja ham bog‘liqdir. Modallik kategoriyasi universal kategoriya sifatida muhokamaga muhtoj, chunki u har xil tizimdagi tillarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi -bu fikrning dalili sifatida: “I think not” o‘zbek tiliga “ishqilib” deya tarjima qilinyapti. Bu xato tarjima emas, aksincha tarjimonning mahoratidir, chunki ingliz tilidagi bu gap butun holicha o‘zbek tilidagi modal ma‘noni beryapti. Fikrimizni xulosalasak, o‘zbek va ingliz tilidagi modal so‘zlar turli grammatik va sintaktik vazifada kelsada, semantik jihatdan bir xil semani ifodalashi mumkin.

Ushbu parchada modal fe‘llar qahramonning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. "couldn't" va "I think not" iboralari qahramonning o'z ishining oqibatlaridan qo'rqishini, doimiy shubha va vahima ichida ekanligini ko'rsatadi. U o'zining qilmishini oqlashga, o'ziga ishonch hosil qilishga urinadi, ammo ichki dunyosidagi kurash uni doimo qiynaydi. Modal fe‘llar orqali romanda psixologik geroyizm va ichki konfliktlar yorqin aks ettiriladi. Takrorlash orqali esa, bu ichki kurash va keskinlik yanada kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А. НУРМОНОВ, Н. МАХМУДОВ, А. АХМЕДОВ, С. СОЛИХЖАЕВА УЗБЕК ТИЛИНИНГ МАЗМУНИЙ СИНТАКСИСИ Узбекистан Республикаси ФА «Фан» м М355 (04)—92 нашриёти, 1992 й

2. Fyodor Dostoevsky “Crime and Punishment”

3. Г а к В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. М., 1981. С.

4. Г р а м м а т и к а современного русского литературного языка. М., 1970. С. 542—545.
5. Жиноят ва жазо: роман / Ф.Достоевский. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 856 б.
6. KAXAROVA IRODA SIDIKOVNA. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EMOTIV, TAQLID VA MODAL SO‘ZLARINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI .Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI
7. Н.Махмудов, А.Нурмонов ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ НАЗАРИЙ ГРАММАТИКАСИ (синтаксис) Ўқитувчи» нашриёти, 1995.
8. Qalandar Sapayev. HOZIRGI O‘ZBEK TILI (morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya)
9. SayfulIayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. - T., «Fan va texnologiya», 2009. - 416 b.
10. Виноградов В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке. Исследования по русской грамматике // Избранные труды. – Москва: Наука, 1998. – 321 с.